

PHILIPS

AC0650



Foydalanuvchi qo'llanmasi

Mundarija

1	Muhim	2
	Xavfsizlik	2
	Soddalashtirilgan YI muvofiqlik deklaratsiyasi	3
2	Havo tozalagich	3
	Jihozning umumiy ko'rinishi	3
	Tugmalar sharhi	4
3	Havo tozalagichdan foydalanish	4
	Filtrni o'rnatish	4
	Wi-Fi indikatorini tushunish	5
	Wi-Fi ulanish	5
	Quvvatni ulash	6
	Yoqish va o'chirish	6
	Rejim sozlamasini o'zgartirish	6
	Zavod sozlamalarini qayta o'rnatish	7
4	Тозалаш	7
	Tozalash jadvali	7
	Havo tozalagichning korpusini tozalash	7
	Filtrning sirtini tozalash	7
5	Filtrni almashtirish	8
	Toza havo himoya qulfi haqida tushuncha	8
	Filtrni almashtirish	8
	Filtrni qayta o'rnatish	8
6	Saqlash	9
7	Nosozliklarni aniqlash	9
8	Eslatmalar	11
	Elektromagnit maydonlar (EMF)	11
	Qayta ishlash	11
9	Kafolat va qo'llab-quvvatlash	11
	Buyurtma beriladigan qismlar va aksessuarlar	11

1 Muhim

Xavfsizlik

Jihozdan foydalanishdan oldin foydalanuvchi qo'llanmasini diqqat bilan o'qib chiqing va keyinchalik ma'lumot uchun saqlab qo'ying.

Eng yuqori samaradorlik uchun havo tozalagichni eng so'nggi versiyagacha yangilashni tavsiya qilamiz. Bunday yangilanishni Air+ ilovasi orqali amalga oshirishingiz mumkin.

Xavf

- Tok urishi va/yoki yong'in xavfining oldini olish uchun jihozni suv, boshqa har qanday suyuqlik yoki (yonuvchan) yuvish vositasi bilan tozalamang.
- Jihozning atrofida yonuvchan materiallar, masalan, insektitsidlar yoki xushbo'y moddalar sepmang.

Ogohlantirish

- Jihozni ulashdan oldin jihozda ko'rsatilgan kuchlanish mahalliy tarmoq kuchlanishiga mos kelishini tekshiring.
- Agar quvvat shnuri shikastlangan bo'lsa, xatarning oldini olish uchun uni Philips kompaniyasi, Philips tomonidan vakolat berilgan servis markazi yoki shu kabi malakali mutaxassislar almashtirishi kerak.
- Agar adapter, quvvat shnuri yoki jihozning o'zi shikastlangan bo'lsa, jihozdan foydalanmang.
- Jihoz bilan berilgan ma'qullangan adapterdangina (KA1201A-2400500EU) foydalaning.
- Bu jihozdan xavfsiz foydalanish bo'yicha ko'rsatma berilgan yoki xavfsiz foydalanish uchun kuzatuv ostida bo'lsa va unga bog'liq xatarlardan xabardor bo'lsa, 8 yosh va undan katta yoshdagilar va jismoniy, sezgi yoki ruhiy qobiliyati cheklangan yoki tajribasiz va tushunchaga ega bo'lmagan odamlar ham foydalanishi mumkin.
- Bolalar jihoz bilan o'ynashiga yo'l qo'ymang.
- Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish kuzatuv ostida bo'lmagan bolalar tomonidan amalga oshirilishi taqiqlanadi.
- Havo chiqarish teshigi yoki havo olish teshigining oldiga predmetlarni qo'yib, havo olish va chiqarish teshiklarini to'sib qo'ymang.
- Havo chiqarish teshigi orqali begona jismlar jihozga tushib qolmasligini tekshiring.
- Standart Wi-Fi xalaqiti 100 mV EIRP dan yuqori bo'lmagan maksimal chiqarish quvvati bilan 2.4 Ggs 802.11b/g/n rejimiga asoslanadi.
- 10 mW EIRP dan kam RCH chiqishli 2,4 Ggs chastotada 5.0 (LE) Bluetooth versiyasi.

Diqqat

- Bu jihoz tegishli shamollatish, muntazam changyutkichda tozalash yoki ovqat tayyorlash davomida dudbo'ron yoki ventilyator sifatida ishlatishga mo'ljallanmagan.
- Doim jihozni quruq, barqaror, tekis va gorizontal yuzaga joylashtiring va foydalaning.
- Jihozning atrofida kamida 20 sm va uning yuqorisida kamida 30 sm bo'sh joy qoldiring.
- Jihozni ustiga o'tirmang yoki uning ustida turmang. Jihozning ustiga hech narsa qo'ymang.
- Jihozga kondensatsiya to'kilishining oldini olish uchun uni bevosita konditsionerning ostiga qo'ymang.
- Faqat bu jihoz uchun mo'ljallangan asl Philips filtrlaridan foydalaning. Boshqa filtrlardan foydalanmang.
- Filtrning yonishi insonga juda yomon ta'sir ko'rsatishi va/yoki boshqalarning hayotini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Filtrdan yonilg'i yoki boshqa maqsadda foydalanmang.
- Jihozga (ayniqsa, havo olish va havo chiqarish teshiklariga) qattiq jismlar bilan urmang.
- Jismoniy jarohatlanish yoki jihoz ishdan chiqishining oldini olish uchun barmoq yoki boshqa jismlarni havo chiqarish va havo olish teshigiga kiritmang.
- Bu jihozdan uyda hasharotlarni qochiradigan tutunli vositalar qo'llanganda yoki moyli qoldiqlar, yonayotgan chiqindilar yoki kimyoviy bug'lar bo'lgan joyda foydalanmang.
- Jihozni gaz bilan ishlaydigan jihozlar, isitish qurilmalari yoki o'choqlar yaqinida ishlatmang.

- Jihozni ko'chirish, tozalash, uning filtrlarini almashtirish yoki boshqa texnik xizmat ishlarini bajarish kerak bo'lganda, doim birinchi bo'lib havo tozalagichni o'chiring, so'ngra rozetkadan adaptelni uzing.
- Jihoz uyda normal ishlash sharoitida ishlatishga mo'ljallangan.
- Jihozni nam sirtlar yoki namlik darajasi yuqori yoki tashqi harorati yuqori bo'lgan joylar, masalan, hammom, hojatxona, oshxona yoki harorat keskin o'zgaradigan joylarda ishlatmang.
- Jihoz is gazi (CO) yoki radonni (Rn) chiqarib tashlamaydi. Bu jihozdin yong'in jarayoni va zararli kimyoviy hodisalar bilan baxtsiz hodisalarda xavfsizlik qurilmasi sifatida foydalanib bo'lmaydi.

Soddalashtirilgan YI muvofiqlik deklaratsiyasi


Bunda DAP B.V. ma'lum qiladiki, AC0650 turidagi radio qurilma 2014/53/EU direktivasiga muvofiq keladi. Yevropa Ittifoqining muvofiqlik deklaratsiyasining to'liq matni quyidagi internet manzilida mavjud: www.philips.com.

2 Havo tozalagich

Xaridingiz muborak va Philips kompaniyasiga xush kelibsiz!


Philips taklif qiladigan qo'llab-quvvatlash xizmatidan foydalanish uchun jihozni www.philips.com/support.

Jihozning umumiy ko'rinishi



*Faqat taqdim etilgan adapterdan foydalaning.

Tugmalar sharhi




3 Havo tozalagichdan foydalanish

Filtrni o'rnatish

Dastlabki foylanishdan oldin filtrning barcha qadoqlarini olib tashlang.

Eslatma: Filtrni o'rnatishdan oldin havo tozalagich elektr rozetkasidan uzilgan bo'lsin.





- 1 Asosni jihozdan olib tashlash uchun uni soat miliga teskari aylantiring.
- 2 Filtrni jihozdan tortib chiqaring.
- 3 Havo tozalash filtrining barcha qadoqlash materiallarini olib tashlang.
- 4 Filtrni jihozga qaytarib qo'ying.
- 5 Asosni qotirish uchun uni qayta biriktiring va soat mili yo'nalishida aylantiring.

Wi-Fi indikatorini tushunish

Wi-Fi belgisi holati	Wi-Fi ulanish holati
To'q sariq rangda o'chib-yonadi	Smartfonga ulanmoqda
Barqaror to'q sariq	Smartfonga ulangan
Oq rangda o'chib-yonadi	Serverga ulanmoqda
Barqaror oq	Serverga ulangan
O'chiq	Wi-Fi funksiyasi faolsizlantirilgan

Wi-Fi ulanish

Birinchi marta Wi-Fi ulanishini sozlash

- 1 **App Store** yoki **Google Play** dasturlaridan Philips "Air+" ilovasini yuklab oling va o'rnatish.
- 2 Havo tozalagichni yoqish uchun uning vilkasini quvvat rozetkasiga ulang va  tugmasini bosing.
 - ↳ Birinchi ishlatganda Wi-Fi indikatorini  to'q sariq rangda yonib-o'chib turadi.
- 3 Smartfon yoki planshetingiz Wi-Fi tarmoqqa muvaffaqiyatli ulanganini tekshiring.






Eslatma:

- Uzluksiz juftlash uchun smartfoningizda Bluetooth funksiyasini yoqing.
- 4 Philips "Air+" ilovasini ishga tushiring va "Qurilma qo'shish" tugmasi yoki ekrandagi "+" tugmasini bosing. Havo tozalagichni tarmog'ingizga ulash uchun ekran ko'rsatmalariga amal qiling.

Eslatma:

- Havo tozalagich birinchi marta sozlanayotgan bo'lsa, bu ko'rsatmalar amal qilish mumkin. Agar tarmoq o'zgaragan bo'lsa yoki qayta sozlash zarur bo'lsa, "Wi-Fi ulanishni asliga qaytarish" 5-betda bo'limiga qarang.
- Agar smartfon yoki planshetingizga birdan ortiq havo tozalagichni ulashni istasangiz, buni ketma-ket qilishingiz kerak.
- Smartfon yoki planshetingiz va havo tozalagich orasidagi masofa hech qanday to'siqlarsiz 10 m bo'lishini tekshiring.

Wi-Fi ulanishni asliga qaytarish


- 1 Havo tozalagichni yoqish uchun uning vilkasini quvvat rozetkasiga ulang va  tugmasini bosing.
- 2 Qisqa signalni eshitilgunga qadar  tugmasini 3 soniya bosib turing.
 - ↳ Havo tozalagich juftlash rejimiga o'tadi.
 - ↳ Wi-Fi indikatorini  to'q sariq rangda yonib-o'chadi.
- 3 "Birinchi marta Wi-Fi ulanishini sozlash" bo'limida berilgan 3-4-bosqichlarga amal qiling.

Quvvatni ulash

Eslatma: Elektr toki urishi xavfi! O'zgaruvchan tok quvvat shnurini uzganda vilkani rozetkada qolmasin. Aslo shnurdan tortmang.



Quvvat adapterini quyidagilarga ulang:

- Dastlab, jihozdagi quvvat rozetkasi.
- So'ngra, devor rozetkasi.





Yoqish va o'chirish

Eslatma:

- Optimal tozalash samaradorligi uchun eshik va oynalarni yoping.
- 1 Yoqish uchun havo tozalagichning orqa tomonidagi quvvat tugmasini  bosing.
↳ Havo tozalagich standartga ko'ra O'rtacha rejimda ishlaydi.
 - 2 Havo tozalagichni o'chirish uchun  quvvat tugmasini yana bir marta bosing.

Rejim sozlamasini o'zgartirish


Rejimni o'zgartirish tugmasini bosish orqali Avtomatik rejim, Turbo rejim yoki O'rtacha rejimini tanlash mumkin   tugmasining yorqinligi joriy ish rejimini aks ettiradi:

- Uyqu rejimi – eng past yorqinlik
- O'rtacha rejimi – o'rta darajadagi yorqinlik
- Turbo rejimi – eng yuqori darajadagi yorqinlik




Turbo rejimi

Turbo rejimida havo tozalagich eng yuqori tezlikda ishlaydi.



O'rtacha rejimi

O'rtacha rejimida havo tozalagich o'rtacha tezlikda ishlaydi.





Uyqu rejimi

Uyqu rejimida havo tozalagich juda past tezlikda sokin ishlaydi.

Zavod sozlamalarini qayta o'rnatish

Standart holatga qaytish uchun havo tozalagichni qayta o'rnatish.

Standart tarmog'ingiz yoki Philips hisobingiz o'zgarganda Wi-Fi ulanishni qayta sozlang.

- Signal tovushini eshitilguncha  va  tugmasini bir vaqtda 10 soniya bosib turing.

4 Тозалаш

Eslatma:

- Jihozning biror qismini tozalash uchun hech qachon abraziv, agressiv yoki yonuvchan tozalash vositalari, masalan, oqartirgich yoki spirdan foydalanmang.

Tozalash jadvali

Bajarilish davri	Tozalash usuli
Zarur bo'lganda	Jihozning sirtini yumshoq quruq mato bilan arting
	Havo olish qoplamasini tozalang
Har to'rt haftada	Filtrning sirtini tozalash

Havo tozalagichning korpusini tozalash

Chang to'planishining oldini olish uchun havo tozalagichning ichki va tashqi qismini muntazam tozalang.


- 1 Havo tozalagichning ichi va tashqarisini tozalash uchun yumshoq, quruq matodan foydalaning.
- 2 Havo chiqarish tirqishini ham quruq, yumshoq mato bilan tozalash mumkin.

Filtrning sirtini tozalash

Filtr sirtini yumshoq nam mato bilan arting yoki vakuumli tozalagich bilan tozalang.

Eslatma:

- yuqori quvvatli/sanoatda ishlatiladigan vakuumli tozalagichdan foydalanilsa, u filtrga shikast yetkazishi mumkin.



5 Filtrni almashtirish


Toza havo himoya qulfi haqida tushuncha



Jihoz ishlayotganda NanoProtect filtri optimal holatda bo'lishi uchun ushbu jihoz toza havo himoya qulfi bilan jihozlangan. Filtrning xizmat ko'rsatish muddati o'tganda filtrni almashtirish signali chiroqlari () yonadi, bu filtrni almashtirish kerakligini bildiradi.

Filtrni almashtirish

Eslatma:



- Bu filtrni yuvib bo'lmaydi yoki qayta ishlatilmaydi.
- Filtrni almashtirishdan oldin doim havo tozalagichni o'chiring va elektr rozetkasidan uzib qo'ying.



- 1 Asosni jihozdandan olib tashlash uchun uni soat miliga teskari aylantiring.
- 2 Filtrni jihozdandan tortib chiqaring. Ishlatilgan filtrni tashlab yuboring.
- 3 Yangi filtrning barcha qadoqlash materiallarini olib tashlang.
- 4 Filtrni jihozga qo'ying.
- 5 Asosni qotirish uchun uni qayta biriktiring va soat mili yo'nalishida aylantiring.
- 6 Havo tozalagich vilkasini devor rozetkasiga ulang.
- 7 Jihozni yoqish uchun  quvvat tugmasini bosing.
- 8 Filtrning xizmat muddati hisoblagichini asliga tiklash uchun  tugmasini 3 soniya bosib turing.
- 9 Filtrni almashtirgandan keyin qo'llaringizni yaxshilab yuving.

Filtrni qayta o'rnatish

Filtrni almashtirish signali () ekranda paydo bo'lishidan oldin ham uni almashtirishingiz mumkin. Filtrni almashtirgandan keyin filtrning xizmat muddati hisoblagichni qo'lda qayta o'rnatishingiz kerak.

- 1 Jihozni yoqish uchun  quvvat tugmasini bosing.
- 2 Filtrning xizmat muddati hisoblagichini qayta o'rnatish uchun quvvat yoqilganidan so'ng 10 soniya ichida  rejim o'zgartirgich tugmasini 5 soniya bosib turing.

6 Saqlash

- 1 Havo tozalagichni o'chiring va quvvat rozetkasidan uzing.
- 2 Havo tozalagich va filtrning sirtini tozalang ("Tozalash" bobiga qarang).
- 3 Saqlashdan oldin barcha qismlarni yaxshilab quriting.
- 4 Filtrni zich plastik xaltalarga o'rang.
- 5 Havo tozalagich, filtrni sovuq, quruq joyda saqlang.
- 6 Filtr bilan ishlagandan keyin doim qo'llaringizni yaxshilab yuving.

7 Nosozliklarni aniqlash

Bu bobda jihozda uchraydigan eng keng tarqalgan muammolar umumlashtirilgan. Agar quyidagi ma'lumotlarga asosan muammoni hal eta olmasangiz, mamlakatingizdagi Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.

Muammo	Ehtimoliy yechimi
Jihoz rozetkaga ulangan bo'lsa ham, ishlamayapti.	<ul style="list-style-type: none">• Filtrni almashtirish signali yoniq, lekin tegishli filtrni almashtirmagansiz. Natijada jihoz qulflangan. Bunday holatda filtrni almashtiring va filtrning xizmat muddati hisoblagichini asliga tiklang.
Havo chiqarish teshigidan chiqadigan havo oldingidan qisman kuchsizroq.	<ul style="list-style-type: none">• Filtr sirti ifloslangan. Filtrning sirtini tozalang ("Tozalash" bobiga qarang).
Havo tozalagich uzoq muddat ishlasa ham, havo sifati yaxshilanmaydi.	<ul style="list-style-type: none">• Filtrlardagi barcha qadoqlash materiallarini olib tashlaganingizni tekshiring.• Filtr to'g'ri o'rnatilganini tekshiring.• Xona o'lchami katta yoki tashqaridagi havo sifati yomon. Optimal tozalash samaradorligi uchun havo tozalagich ishlayotganda oldin eshik va oynalarni yoping.• Ichkarida havoni ifloslantiruvchi manbalar bor. Masalan, chekish, taom tayyorlash, xushbo'y hid.• Filtrning xizmat muddati tugamoqda. Filtrni yangisi bilan almashtiring.
Jihozdan yoqimsiz hid chiqmoqda.	<ul style="list-style-type: none">• Jihozdan birinchi bir necha marta foydalanganingizda undan plastikning isi kelishi mumkin. Bu normal holat. Biroq, agar filtr olib tashlanganda ham jihozdan kuygan hid chiqsa, Philips dileri yoki vakolatli Philips servis markazi bilan bog'laning. Filtr ichki gazlarni yutgani sababli ishlatilgandan keyin hid chiqarishi mumkin. Takroran ishlatish uchun filtrni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlariga qo'yish orqali uni qayta faollashtirish tavsiya etiladi. Agar hid ketmasa, uni almashtiring.

Muammo	Ehtimoliy yechimi
<p>Jihoz juda baland tovushda ishlaydi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Filtr qadog'i olib tashlanganligini tekshiring. • Havo sifati yaxshi bo'lmaganda jihoz yuqori tezlikda ishlaydi va bu baland shovqinga sabab bo'ladi. Tunda yotoqxonada jihozdan foydalanganda "Uyqu tezligi"ni tanlang. • Agar havo olish teshigiga nimadir tushib ketsa, bu ham noodatiy baland tovushga sabab bo'lishi mumkin. Begona jismlarni jihozdan chiqarib tashlash uchun jihozni zudlik bilan o'chiring, teskari qo'ying.
<p>Filtrni almashtirsam ham, jihoz uni almashtirishim zarurligini ko'rsatib turibdi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Filtrning xizmat muddati hisoblagichini qayta o'rnatmagan bo'lishingiz mumkin. Jihozni yoqing. So'ngra rejim o'zgartirgich tugmasini (🔄) yo'qolguncha 3 soniya bosib turing.
<p>Wi-Fi sozlamasi bajarilmadi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Jihozingiz ulangan router ikkitalik chastotali bo'lsa va 2,4 Gs tarmoqqa ulanmagan bo'lsa, shu routerning boshqa chastotasiga (2,4 Gs) o'ting va havo tozalagichni qayta juftlashga harakat qilib ko'ring. 5 Gs tarmoqlar qo'llab-quvvatlanmaydi. • Veb-autentifikatsiya tarmoqlari qo'llab-quvvatlanmaydi. • Jihoz Wi-Fi routerining diapazonidaligini tekshiring. Havo tozalagichni Wi-Fi routerga yaqinroq joylashga harakat qilib ko'ring. • Tarmoq nomi to'g'riligini tekshiring. Tarmoq nomida katta yoki kichik harflar farqlanadi. • Wi-Fi paroli to'g'riligini tekshiring. Parolda kichik yoki katta harflar farqlanadi. • "Wi-Fi tarmoqqa ulanish" bo'limidagi ko'rsatmalarga muvofiq qayta sozlab ko'ring. • Wi-Fi ulanishiga elektromagnit yoki boshqa xalaqitlar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalaqitlarga sabab bo'luvchi elektron qurilmalardan jihozni uzoqroq saqlang. • Mobil qurilmalar parvoz rejimidagligini tekshiring. Wi-Fi tarmoqqa ulanishda parvoz rejimi faolsizlantirilganini tekshiring. • Keng doiradagi va yangi nosozliklarni aniqlash maslahatlari uchun ilovadagi yordam bo'limiga qarang.

8 Eslatmalar

Elektromagnit maydonlar (EMF)

Bu jihoz elektromagnit maydonlarning ta'siri bo'yicha amaldagi standart va me'yorlarga javob beradi.

Qayta ishlash

Bu belgi mahsulotning odatiy maishiy chiqindilar bilan tashlanmasligi zarurligini bildiradi (2012/19/EU).



Mamlakatingizning elektr va elektron qurilmalarni alohida to'plashga oid qoidalariga amal qiling. To'g'ri utilizatsiya qilish atrof-muhit va insonlar salomatligiga salbiy oqibatlarning oldini olishda yordam beradi.

9 Kafolat va qo'llab-quvvatlash

Versuni bu mahsulotga xariddan so'ng ikki yillik kafolat beradi. Nosozlik noto'g'ri foydalanish yoki yetarlicha texnik xizmat ko'rsatilmaganidan kelib chiqsa, ushbu kafolat amal qilmaydi. Kafolatimiz iste'molchi sifatidagi qonuniy huquqlaringizga ta'sir qilmaydi. Qo'shimcha ma'lumot yoki kafolat yuzasidan murojaat uchun www.philips.com/support veb-saytimizga kiring.

Buyurtma beriladigan qismlar va aksessuarlar

Agar biror qismni almashtirish kerak bo'lsa yoki qo'shimcha qismni xarid qilishni istasangiz, Philips dileri bilan www.philips.com/support manzili orqali bog'laning.

Qismlarni olish bo'yicha muammolaringiz bo'lsa, mamlakatingizdagi Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.



Philips va Philips bezak belgisi emblemasi ro'yxatdan o'tkazilgan Koninklijke Philips N.V. savdo belgilaridir va litsenziya bo'yicha foydalaniladi.

Bu mahsulot Versuni Holding B.V. kompaniyasi javobgarligi ostida ishlab chiqarilgan va sotiladi va Versuni Holding B.V. ushbu mahsulot uchun kafil sanaladi.

2023 © Versuni Holding B.V.

AC0650_UM_v1.0 (09/08/2023)

